SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI DSc.08/2025.27.12.I.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI

AHATQULOV BAHRIDDIN MATLABOVICH

ZAMONAVIY BIOTEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KARTOSHKA URUG‘CHILIGINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

635.21:631.5:576.8

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi

Оглавление авторефарата диссертасии доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Contents of the Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Economics Sciences

SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI DSc.08/2025.27.12.I.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA STRATEGIK RIVOJLANISH VA TADQIQOTLAR XALQARO MARKAZI

AHATQULOV BAHRIDDIN MATLABOVICH

ZAMONAVIY BIOTEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KARTOSHKA URUG‘CHILIGINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5660 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Otajonov Shuxrat Ibrayimjonovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ahrorov Farhod Bahriddinovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Samiyeva Gulnoza Toxirovna iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Xalqaro universitet**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.I.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dehbed qo‘rg‘oni, A.Temur ko‘chasi 7-uy. Tel.: (99866) 492-81-41, (99866) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz.

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dehbed qo‘rg‘oni, A.Temur ko‘chasi 7-uy. Tel.: (99866) 492-81-16, e-mail: info@samaguni.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “_____” _____ dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.T.Hasanov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.B.Babaxolov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, (PhD)

O.Murtazayev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Kartoshka dunyo aholisi iste'molida muhim ahamiyatga ega. U iste'mol bozorining barqarorligini ta'minlaydigan, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydigan strategik mahsulotdir. Ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi yillarda kartoshka ekini maydonlari Afrikada 382 %, Markaziy Osiyoda 162 % kengaygan, Yevropada 69 % qisqargan.[1] Shu sababli kartoshka yetishtiradigan barcha davlatlarda, shu jumladan respublikamizda ham zamonaviy biotexnologiyalar asosida kartoshka urug'chiligining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

Jahonda qator yo'nalishlarda yangi innovatsion yondashuvlar orqali yuqori hosildor kartoshka navlarini yaratish va sifatli kartoshka tugunaklarini yetishtirish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Kartoshkachilikda yuqori hosildor, sifatli kartoshka to'qimalaridan mikro va mini tuganaklarni ko'paytirish hamda mahalliy urug'chilikni rivojlantirish tadqiqiotchilar oldiga dolzarb masalalarni qo'yadi. Bugungi kunda O'zbekistonda kartoshka yetishtirishdan olingan hosil iste'mol va urug'likka bo'lgan talabni qoplamaydi. Бу, o'z navbatida, talab tufayli narxlarning oshishiga, import hajmini kengayishiga sabab bo'lmoqda, yetishtirishda xarajatlari yuqori bo'lgani uchun sotishdan kam daromad olinmoqda.

Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida sifatli hamda mo'l kartoshka hosilini yetishtirish uchun intensiv usul hisoblangan in vitro ko'paytirish asosida kartoshka urug'chiligini yo'lga qo'yish, virus va kasalliklardan xoli kartoshka tugunaklarini ekish orqali an'anaviy usulga nisbatan yuqori hosildorlikka erishish hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi"da mahalliy sabzavot, poliz va kartoshka urug'liги ta'minotini 50 %га yetkazish (54-maqsad) va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni nazarda tutuvchi mexanizmlar qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.[2]

Mazkur dissertatsiya иши O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son, "Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 14-fevraldagi PF-22-son Farmonlari, "Respublikada kartoshka yetishtirishni ko'paytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-269-son, "Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-maydagi PQ-4704-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning II. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy hamda madaniy-

[1] Хамидреза Вадждани. 2022. "Применение картофеля в прикладных науках". https://pem.areeo.ac.ir/article_128058_a9bb42c14a2d7c8705f67a7b32b25344.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.

ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”, shu bilan birga, V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Serhosil kartoshka navlarida zamonaviy usullarni takomillashtirish va hosilni ko‘paytirish, parvarishlash usullarini iqtisodiy tahlil qilish, kartoshka yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, kartoshka navlarining urug‘ berish xususiyatlarini o‘rganish, iqtisodiy foydani ko‘paytirishga mo‘ljallangan strategiyalarni takomillashtirish, organik o‘g‘itlarning hosildorlikni oshirishdagi iqtisodiy samaradorligini baholash, kartoshka urug‘chiligida in-vitro ko‘paytirish orqali boshlang‘ich materiallarni olish, shuningdek iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlarini asoslashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar xorijlik olimlardan Vishegurov S.X.[3], Belova M.V.[4], Chagin V.V.[5], Naser M.[6], Oves Y.V.[7] hamda boshqalar tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda Sherkabilov Sh.A., Dilmurodov O.G., Iskandarov S.T., Alimov U.Z., Saidjonov S.J. va Hasanov B.T.[8] kabi yetakchi olimlar tomonidan kartoshka urug‘chiligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, agrosanoat majmuida qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar bajarilgan. Lekin respublikamiz sharoitida zamonaviy biotexnologiyalar asosida kartoshka urug‘chiligining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazining ilmiy-tadqiqotlar uchun ish rejasining 6-bandiga asosan oziq-ovqat tarmog‘ini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, amaldagi loyiha va dasturlarning iqtisodiy tahlillari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi biotexnologik usul hisoblangan in vitro ko‘paytirish asosida kartoshka urug‘chiligining samaradorligini oshirish bo‘yicha nazariy va ilmiy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kartoshkaning virus va turli kasalliklarga chidamliligi, vegetatsiya davrining optimallashuvi, shuningdek birlik maydondan olinadigan sof foydani ekstensiv usullarga nisbatan multiplikativ o‘sishini asoslash;

---

[3] Вишегуров С.Х. “Совершенствование агротехнических приемов выращивания разных сортов оздоровленного семенного картофеля в лесостепи приобья” (2000 г).

[4] Белова М.В. “Повышение экономической эффективности производства и реализации картофеля” (2004).

[5] Чагин В.В. “Сортовой потенсиал и семенная продуктивност картофеля в степной зоне Рес. Хакасия” (2011 г).

[6] Naser M. “Effect of Fish Amino Acid on Potato Growth and Yield under Natural Science Farming” (2018-y).

[7] Овес Й.В. “Биотехнологические основы совершенствования процесса получения и размножения исходного материала в оригинальном семеноводстве картофеля” (2021 г).

[8] Sherkabilov Sh.A. Kartoshkachilikni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish avt. T. 2025-y. 57-b.; Dilmurodov O.G. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida meva-sabzavotchilik majmuida mahsulot sotishning logistik zanjirini takomillashtirish: diss. i.f.n.-T.: 2010-y.-152 b.; Iskandarov S.T. Himoyalangan yer sabzavotchiligini rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish: avt. diss. i.f.n.-T. 2018-y-46 b.; Alimov U.Z. Poliz mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari: avt. diss. i.f.f.d.-T.: 2023-y. -52 b., Saidjonov S.J. Kartoshkachilikning rivojlanishi va uni iqtisodiy samaradorligini oshirish: avt. diss. i.f.n. – T.: 2009-y.; Hasanov B.T. Oziq-ovqat ta’minotida kartoshka yetishtirish qiymat zanjiri subyektlari faoliyatini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida): avt. i.f.f.d. – T.: Qarshi, 2024-y.

urug‘lik kartoshka yetishtirish bosqichlarida energiya, mehnat, muhit, material va boshqa xarajatlarni hisoblash va ularni xarajatlarga ta’sirini o‘rganish, iqtisodiy tahlillar asosida yangi mexanizm ishlab chiqish;

kartoshka hajmini oshirishga qaratilgan hamda yetishtirish jarayonlarini takomillashtiruvchi tizimni iqtisodiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash;

kartoshkaning iste’mol ratsionidagi ahamiyatini hisobga olib, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tamoyiliga asosan urug‘lik yetishtirish, saqlash hamda sotishda samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

kartoshka urug‘chiligining samaradorligini baholashda “Samaradorlik indeksi” orqali kartoshka urug‘chiligining samaradorligini baholash;

in vitro ko‘paytirishning samaradorligi yuqori bo‘lgan yangi mexanizmlari asosida O‘zbekiston Respublikasi uchun kartoshka urug‘chiligining 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida urug‘lik kartoshka yetishtiruvchi xo‘jaliklar hamda monografik tadqiqotlar uchun Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Toyloq tumanidagi ilmiy-tadqiqot stansiyasi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti in vitro ko‘paytirish usuli bilan kartoshka urug‘chiligini rivojlantirish, hosildorlik, sifat va urug‘ samaradorligini oshirish bo‘yicha fanlararo iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy va iqtisodiy tahlil, ilmiy mantiqiy mushohada, monografik kuzatish, sintez, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda prognozlashdan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

kartoshka urug‘chiligida an’anaviy usullardan farqli ravishda in vitro ko‘paytirish usulini qo‘llash orqali mahsulot hajmining bosqichma-bosqich multiplikativ o‘sishi aniqlangan va iqtisodiy samaradorligi asoslangan;

kartoshka urug‘chiligining iqtisodiy samaradorligini baholashda “Samaradorlik indeksi” takomillashtirilib, samaradorlik darajalari juda samarasiz [1.0–1.4], samarasiz [1.5–2.4], qisman samarali [2.5–3.4], samarali [3.4–4.4], juda samarali [4.5–5.0] kabi mezonlar orqali baholanishi ilmiy asoslangan;

Samarqand viloyati misolida DXSh negizida urug‘lik kartoshka hajmini oshirish hamda yetishtirish jarayonlarini tizimli yondashuvlar asosida optimallashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan;

O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy biotexnologiyalarga asoslangan hamda iqtisodiy parametrlarga mos urug‘lik kartoshka yetishtirish hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

kartoshka urug‘chiligida in vitro ko‘paytirish usuli asosida joriy etilgan 3 bosqichli yondashuv natijasida maydondan olinadigan sof foyda ekstensiv usullarga nisbatan multiplikativ o‘sish hisobiga 30 % gacha oshishi aniqlangan;

kartoshka urug‘chiligining iqtisodiy samaradorligi “Samaradorlik indeksi” uslubi asosida (juda samarasiz, samarasiz, qisman samarali, samarali, juda samarali) mezonlar bo‘yicha

baholanib, urug‘ yo‘qotishlari 5 % gacha, ortiqcha xarajatlar esa 20 % gacha kamayishi isbotlangan;

Samarqand viloyati misolida davlat-xususiy sheriklik asosida 3 yilga mo‘ljallangan, yetishtirish jarayonlarini takomillashtirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari natijasida 93 ming tonna yalpi hosil olish imkoniyati prognoz qilingan;

O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy biotexnologiyalarga asoslangan hamda iqtisodiy parametrlarga mos urug‘lik kartoshka yetishtirish hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kartoshka urug‘chiligida xarajatlarni maqbullashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanishga doir ma’lumotlarga statistik ishlov berilganligi, so‘rovnoma, monografik kuzatish, prognoz va eksperiment usullaridan foydalanilganligi, nazariy va amaliy natijalarning o‘zaro muvofiqligi, ularning amaliyotga joriy etilganligi, shuningdek tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Urug‘lik kartoshka yetishtirishda qo‘shimcha qiymat yaratish va ishlab chiqarishning texnologik bosqichlarini qisqartirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilganligi, kartoshka urug‘chiligida ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilish imkoniyatlari asoslanganligi, hosilni muvofiqlashtirishga qaratilgan monitoring tizimi ishlab chiqilganligi, Samarqand viloyati misolida DXSh asosida urug‘lik kartoshka yetishtirish mexanizmi takomillashtirilganligi hamda respublikada zamonaviy biotexnologiyalarga asoslangan urug‘lik kartoshka yetishtirish hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Urug‘lik kartoshka yetishtirishda in vitro ko‘paytirish usuli kabi zamonaviy biotexnologiyalarni joriy etish, viruslardan xoli boshlang‘ich materiallardan foydalanish orqali qo‘shimcha qiymatni oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish imkoniyati yaratilganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif hamda tavsiyalar asosida fermer xo‘jaliklarida yuqori hosildorlik hamda daromadga erishish mumkinligi, shuningdek tadqiqot natijalaridan kartoshkachilikda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish va “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanini rivojlantirishda foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kartoshka urug‘chiligining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

kartoshka urug‘chiligida in vitro ko‘paytirish asosida mahsulot hajmining bosqichma-bosqich multiplikativ o‘sishga va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan yondashuv Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida 17 ga maydonda joriy qilinib, hosildorlik 48 s/ga oshirilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 14-avgustdagi 05/05/4953-son ma’lumotnomasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 10-martdagi 01/27-4-51-son 13 ta banddan iborat “Aholini kartoshkaga bo‘lgan ehtiyojini kafolatli ta’minlash, kartoshka yetishtirish hajmini oshirish hamda bozorlarda narxlar barqarorligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”).

kartoshka urug‘chiligida “Samaradorlik indeksi”ni takomillashtirish hamda “Yetishtirish-saqlash-sotish”ni avtomatlashtirish hisobiga samaradorlikni oshirishga qaratilgan yondashuv

respublika bo‘ylab ijrosini ta’minlashga qaratilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-martdagi 166-son qarori ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-sentabrdagi 218-son buyrug‘i, vazirlikning 2025-yil 14-avgustdagi 05/05/4953-son ma’lumotnomasi). Shuningdek, kompaniya misolida ortiqcha xarajatlar 10 % ga, urug‘ yo‘qotishlari 5 % ga kamaytirilib, iqtisodiy samaradorlik 76,67 % ga oshishi asoslangan;

Samarqand viloyati misolida DXSh asosida urug‘lik kartoshka yetishtirishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, 3 yilda 93 ming tonna urug‘lik kartoshka yetishtirish prognozi asosida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti qoshidagi “O‘zbekiston-Koreya kartoshka urug‘chiligi markazi” faoliyatiga joriy qilingan (Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti Kuzatuv kengashining 2024-yil 14-iyundagi 2-son, 2025-yil 4-dekabrdagi 3-son yig‘ilishi bayonlari, Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/16-son ma’lumotnomasi);

zamonaviy biotexnologiyalarga asoslangan va iqtisodiy parametrlarga mos urug‘lik kartoshka yetishtirish hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-269-son qarorida inobatga olingan, unga ko‘ra, 2030-yilgacha 617 ming tonna yuqori sifatli urug‘lik kartoshka yetishtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish prognoz qilingan (Qishloq xo‘jaligi vazirining 2025-yil 11-sentabrdagi 218-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 16 ta banddan iborat chora-tadbirlar rejasi hamda vazirlikni 2026-yil 13-fevraldagi 06/26-2-10-05/16-son ma’lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Xorijiy hamda mahalliy anjumanlarda, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi Ilmiy kengashi muhokamasida ma’qullangan. 2 ta xalqaro, 4 ta mahalliy ilmiy konferensiyada aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (2 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa hamda takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shuningdek ilovalarni qamrab olgan holda jami 113 betda bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmetlari tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan, ishlar shu bilan birga dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Zamonaviy biotexnologiyalar asosida kartoshka urug‘chiligi iqtisodiy samaradorligining nazariy asoslari”** deb nomlangan I bobida zamonaviy biotexnologiyalar asosida urug‘lik kartoshka yetishtirishning nazariy-uslubiy asoslari,

samaradorlikni oshirish yo‘llari va xorij tajribasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yoritilgan. Kartoshka ozuqaviy qiymati yuqori mahsulotlardan biridir. Uning kimyoviy tarkibi, 62-82 % suv hamda 23-34 % quruq moddalardan iborat bo‘lib, 16 % kraxmal, 1,2-3 % oqsil, 0,9 % qand va boshqa biologik moddalar uchraydi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 mlrd nafardan ortiq aholi kundalik iste’molida kartoshka iste’mol qiladi.[9] Bugungi kunda 50 dan ziyod davlatlarda kartoshka genlari ustida tadqiqotlar o‘tkazilib, intensiv va yuqori hosil beradigan navlar yaratilmoqda. E’tiborlisi shundaki, biologik o‘zgartirishlar natijasida kartoshka navlarining biometrik ma’lumotlarini shakllantirish va seleksiya jarayonida genetik belgilarni aniqlash[10] hamda iqtisodiy barqaror yangi xususiyatli nav duragaylarini yaratish mumkinligi ilmiy asoslangan.

Kartoshka urug‘chiligining tashkiliy asosiga tayanib, in vitro ko‘paytirish, mutagenez va genetik usullar orqali yangi, intensiv hamda yuqori hosildor navlar yaratiladi. Masalan, germaniyalik olim Otto Appel kartoshka kasalliklarini aniqlash va virusli infeksiyalarga qarshi kurashish bo‘yicha sertifikatlash metodikasini ishlab chiqqan. Ushbu metodika sifat va sanitariya standartlarga rioya qilish orqali sifatli urug‘ ko‘paytirishga qaratilgan (1-rasm).



1-rasm. Urug‘ samaradorligini baholash bo‘yicha Otto Appel metodikasi[11]

Metodika nav tozaligi va hosil sifati barqarorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, seleksiya xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, potensial hosildorlik, N-1 gektarda (dona), B-1 o‘simlikda tuganak soni (dona), M-1 ta tuganakni o‘rtacha massasi (g).

Kasallik ta’siridagi yalpi hosil: $\mathbf{Y_h=(N-N_k)B\times M+N_kB\times M(1-P_k)}$ (1).

Bunda, hosil kamayish miqdori: $\mathbf{\Delta Y=Y_p-Y_h}$ (2).

Y_h-yalpi hosil, N_k-kasallangan o‘simliklar, P_k-kasallangan o‘simliklarda hosil kamayishi (0-1 oraliq). Foizda $\mathbf{K=Y_p-Y_h/Y_p\times 100\ \%}$. Misol sifati, 10 mln dona mini tuganak hisobiga ko‘ra, $N_k=N\times C=10$ mln×0,1=100 ming dona, potensial hosil $Y_p=10$ mln×8×60=4 mlrd 800 t/ga,

[9] Rahimov G., Massino I., Qurbonov G., Alimov A. “O‘simlikshunoslik”. Kartoshka. -T.: 2006. 55-203-b.
[10] Борис К.В., Рижова Н.Н., Кочиева Й.З. “Изучение внутривидового полиморфизма фрагмента гена сахарозосинтазы сус4 картофеля (Solanum tuberosum) // Genetika, 2011, t.47, 190-198 стр.
[11] www.openagrar.de/receive/openagrar_mods_00036264, Virus and Virus-like Diseases of Potatoes and Production of Seed-Potatoes, Die Pflanzkartoffel (1918; 2-nashr 1920).

Y_h=(9 mln×8×60)+(1 mln×8×60×0,6)=4608 t/ga, kamayish K=4 %. Empirik jihatdan esa kartoshkaga bo‘lgan talab, aholi soni ortishi hamda mahsulotning ahamiyati hisobga olinadi. Ushbu tadqiqotda kartoshka urug‘chiligining metodik tasnifi ishlab chiqilgan (2-rasm).



2-rasm. Zamonaviy biotexnologiyalarga asoslangan kartoshka urug‘chiligining metodik tasnifi[12]

2-rasmda birinchi bosqich sifatida in vitro texnologiyasini qisqa muddatda ko‘payish koeffitsiyenti yuqori prognoz qilingan; ikkinchi bosqichda aeroponik, gidroponik yoki dala sharoitiga mos agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan; uchinchi bosqichda nav tozaligi, virusdan xoliligi, laboratoriya diagnostikasi, molekulyar markerlar bilan identifikatsiya qilish kabi nazorat tartiblarini joriy qilishga asoslangan. Shuningdek, to‘rtinchi bosqichda laboratoriyadan dalagacha monitoring, vegetatsiya davrida fitosanitar kuzatuv tahlillari amalga oshiriladi. Bularning natijasida yo‘qotishlar 15 % gacha kamayadi, hosil sifati oshadi, ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi ko‘payadi. Yerdan foydalanishning umumiy iqtisodiy samaradorligini quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$\mathbf{I=SD/(L+M+E)} \quad (3).$$

Bunda, I – yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi, SD – yerning tegishli turi bir gektari hisobiga olingan sof daromad, so‘m. I – yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi (birliksiz koeffitsiyent), SD – yer turi bo‘yicha 1 gektarga olingan sof daromad, so‘m, L – mehnat (ishchi kuchi) xarajatlari, so‘m/ga, M – moddiy resurslar xarajati, so‘m/ga, E – yer resurslari (energiya xarajatlari) so‘m/ga. Hisob-kitoblarga ko‘ra, SD = o‘rtacha 10 mln so‘m/ga, L=2 mln so‘m/ga, M=1,5 mln so‘m/ga, E=700 ming so‘m/ga bo‘lsin.

Natija I=(10 mln)/(2 mln+1,5 mln+700 ming)=(10 mln)/(4,2 mln)=2,38.

Xulosa shuki, yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi koeffitsiyenti 2,38 ni tashkil qildi. 1 gektar uchun qilingan 1 so‘m xarajatdan 2,38 so‘m daromad olindi. Dunyo miqyosida kartoshka yetishtirish hajmi va hosildorlik ko‘rsatkichlariga ko‘ra 2025-yilda bozor hajmi 119,79 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan hamda 2030-yilga kelib 142,27 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. Bu Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iste’mol hajmi va yetishtirish kengayishi bilan izohlanadi (3- va 4-rasmlar).

[12] Tadqiqotga asoslangan muallif ishlanmasi.



	Dunyoda	Afrika qit'asida	Osiyo qit'asida	Amerika qit'asida	Yevropa qit'asida	Okean orti mamlakatlarida
Ekin maydoni (ming gektar), %	-21	382	162	216	245	219,5
Ishlab chiqarish (mln. tonna), %	20	738	397	78	236	61
Hosildorlik (tonna/gektar), %	50	90	54	34	46	97

3-rasm. Dunyo miqyosida kartoshka yetishtirish va hosildorlik tahlillari[13]



4-rasm. 2025-2030-yillarda jahon kartoshka bozoridagi o‘sish prognozi[14]

O‘zbekistonda kartoshka importini kamaytirish va aholiga sifatli kartoshka yetkazib berish uchun urug‘chilik tizimini takomillashtirish zarur. Buning uchun mahsulot yetishtiruvchilarga sifatli urug‘larni bosqichma-bosqich beg‘araz yetkazib berishni nazarda tutuvchi boshqaruv tizimi juda muhim. Kartoshka urug‘chiligi iqtisodiy jihatdan zarur, chunki ichki hosildorlik jahon

[13] https://pem.areeo.ac.ir/article_128058_a9bb42c14a2d7c8705f67a7b32b25344.
[14] https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/potato-market.

standartlariga nisbatan past, import 2025-yilda 490,8 ming tonnaga yetgan (9,1 % oshgan). Urug‘lik importi yil sayin oshmoqda, bu esa mahalliy urug‘chilik tizimi yetarli darajada rivojlanmaganini ko‘rsatadi. Zamonaviy biotexnologik usullar yordamida hosildorlikni 100 % gacha oshirishni bunga yechim sifatida qarash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Kartoshka urug‘chiligida samaradorlikning iqtisodiy zarurati[15]

Yo‘nalishlar	Ko‘rsatkichlar
Import hajmi (2025)	490,8 ming tonna kartoshka
Import o‘sishi	9,1 % ga oshgan
Urug‘lik importi (2025)	4 ming tonna
Ichki hosildorlik	163 sentner/ga
Jahon hosildorligi	16 t/ga (tajribalarda 40-80 t/ga)
Ilg‘or texnologiyalar samaradorligi	hosilni 50-100 %ga oshirishi mumkin

Xulosa shuki, kartoshka urug‘chiligida import navlarga bo‘lgan qaramlik tufayli O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kartoshka hosildorligida o‘zgaruvchan natijalarga erishildi. Umumiy yig‘im sezilarli darajada oshgan bo‘lsa-da, oxirgi yillarda biroz pasayish kuzatilgan. Hosildorlik maydoni dastlab o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan va ma’lum darajada kamaygan. Bu o‘zgarishlar kartoshka yetishtirishdagi samaradorlik hamda resurslardan foydalanishda farqlarni ifodalaydi (5-rasm).



5-rasm. O‘zbekiston sharoitida kartoshka yetishtirish dinamikasi

Rasmdan ko‘rinib turbdiki, umumiy o‘sish 2020-2024-yillarda kuzatilgan, 2025-yilda pasaygan. Ushbu o‘zgarishlar kartoshka yetishtirishdagi texnologiyalar, iqlim omillari va boshqa ta’sirlar natijasida yuzaga kelgan. Ekologik muammolar agrar tarmoqdagi amaliyotlarni

[15] https://www.spot.uz/oz/2025/10/13/potato-import/?utm_source, https://www.fao.org/4/i0200e/I0200E10.htm?utm, https://news.sustainability-directory.com/food/new-potato-breeding-boosts-yields-enhancing-global-food-security/?utm_source “Parameters”.

qiyinlashtirmoqda va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda.[16] Kartoshkachilikda **Niderlandiya, Fransiya, Germaniya hamda** Misr kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqib (2-jadval) amaliy choralar ko‘rish tavsiya qilinadi.

2-jadval

Kartoshka urug‘chiligida xorij tajribasining qiyosiy-tahlillari (2024-y.)

Texnologiya va natijadorlik	O‘zbekiston bilan qiyosiy tahlillar
Niderlandiya. 300 ta nav, 90 % in vitro, qat’iy sertifikatlash tizimi, yuqori sifatli urug‘lik yetarli. 763,7 mln $ eksport	Laboratoriyalar mavjud, eksport hajmi va nav xilma-xilligi kam, xalqaro sertifikatlash tizimi mavjud emas
Fransiya. “Bretagne Plants Innovatsion” va “Orsay” unv., yiliga 21 ming ga-630 ming tn urug‘lik, 240 ming tonna eksport	Klaster tizimi shakllanmoqda, lekin kompleks tizim hamda navlar soni cheklangan
Germaniya. Seleksiya, genetik monitoring, agrotexnologiyadan keng foydalaniladi. 102,9 mln kg eksport, gektariga 40 tonna	Seleksiya va genetik monitoring mavjud, hosildorlik kam hamda texnologiyalar yetarli emas
Misr. In vitro jadal rivojlangan. Lady Rosetta, Spunta-49,5 mln $ eksport Afrika va Yaqin Sharq	Laboratoriyalar kam, lekin akklimatizatsiya va eksport hajmi oz
Jan. Koreya. In vitro ko‘paytirishdan yiliga 10 mln mikro-tuganak yetishtiriladi. Eksport cheklangan, Osiyoda yetakchi	Innovatsion tizimni joriy qilmoqda, avtomatlashtirish va mikro tuganak yetishtirish hajmi cheklangan

Iqtisodiy samaradorlik yetishtirish jarayonida resurslar tannarxiga bog‘liq bo‘lib, mahsulot xarajatlariga nisbatan daromadni ko‘rsatadi. Buni quyidagi formulada hisoblash mumkin:

$$IS = \frac{\text{Daromad}}{\text{Umumiy xarajat}} \qquad (4).$$

Bu yerda, IS-iqtisodiy samaradorlik, UX-Mahsulotni yetishtirish uchun sarflangan umumiy xarajatlar. IS>1-ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan samarali, daromad xarajatlardan ko‘p. IS<1-ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan samarasiz, xarajatlar daromaddan ko‘p. Misol uchun, O‘zbekistondagi laboratoriyalarda 3 oy davomida 2 mln dona in vitro o‘simlik yetishtirish uchun 4 mlrd 172 ming so‘m (1 dona mini tuganak uchun 2 086,2 so‘m) mablag‘ zarur. Himoyalangan issiqxonalarda 10 mln donagacha mini tuganak yetishtiriladi (unuvchanlik 85 %), mini tuganaklardan 2 ming tonnagacha (hosildorlik gektariga o‘rtacha 160 s) super-super elita urug‘ olinadi. 1 gk urug‘ xarajati 8 ming so‘m (5,5 ming so‘m yetishtirish va saqlash xarajati 2,5 ming so‘m). 1 kg super-super elita urug‘i o‘rtacha 10 ming so‘m, jami daromad 20 mlrd so‘mni tashkil qiladi.

[16] Ahatqulov B. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda biologik yondashuvlarning iqtisodiy tahlillari// Agro Biznes Inform, 1-son, 3-b.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda kartoshka urug‘chiligi tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari”** deb nomlangan II bobida in vitro ko‘paytirishni iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash asoslangan. Bugungi kunda O‘zbekiston kartoshka genofondida 250 dan ortiq navlar mavjud, ulardan 27 tasi milliy urug‘ sifatida yaratilgan.[17] Muammo shuki, kafolatlangan urug‘ yetmaydi, ko‘p hollarda R1 dan R5 gacha avlodli va iste’mol kartoshkadan urug‘ sifatida foydalaniladi.

Import qilishda tadbirkorlarning aylanma mablag‘lari yetarli emas, kreditlar foizi yuqori (27 % gacha), transport-logistika xarajatlari qimmat. Bundan tashqari, import navlar yuqori avlodli emas, xarajatlar ko‘pligi uchun arzonlari olib kelinadi, import navlar 15-50 ming so‘mgacha sotiladi. Yetishtirishda urug‘lik materiallari, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i mahsulotlari va ishchi kuchi uchun 1 gektar maydonga 60-70 mln so‘m sarflanadi, xarajatlar boshqa ekinlarga qaraganda 2-4 barobar ko‘p. Import hisobiga mahalliy yetishtirilgan ertaki kartoshkalar tannarxi ancha arzon, mahalliy kartoshka eksportiga taqiqlar mavjud. O‘zbekistonda kartoshka yetishtirish uchun resurslar cheklangan. Masalan, o‘rtacha 1 gektar kartoshka o‘simligini nasos orqali sug‘orish uchun 7 ming m^3 suv va 2,3 ming kilovatt elektr energiyasi sarflanadi (~2,1 mln so‘m), bu esa tannarxni 3,5-4 % oshiradi. Uning ustiga tuproqlarning unumdorligi yildan yilga pasayib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, yetmaydigan kartoshka hajmi va import ko‘rsatkichlari yuqori (6-rasm).[18]



	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Ortiqcha yoki yetishmaydigan hajmi, (+/-)	-25,2	-193,6	-224,4	-276,1	-449,8	-559,0	-552,5	-544,8	-622,2	-602,9
Ehtiyojning ta'minlanganlik darajasi, %	99,1	93,5	92,8	91,8	87,5	85,5	86,2	86,8	85,7	86,6
Eksport	0	0	0,3	6,1	0,3	0	2,8	4,2	3,2	3,6
Import	25,2	193,6	224,7	282,2	450,1	559,0	555,3	549,0	625,3	606,6
Ishlab chiqarish	2 789,	2 793,	2 911,	3 089,	3 143,	3 285,	3 441,	3 574,	3 721,	3 888,
Umumiy iste'mol hajmi	2 814,	2 987,	3 136,	3 365,	3 593,	3 844,	3 994,	4 118,	4 343,	4 491,

6-rasm. O‘zbekistonda kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlari

Rasmdan ma’lumki, import hajmi 10 % atrofida, o‘sishni yer maydoniga mos bo‘lishi hamda import urug‘ narxi mahalliy urug‘ narxiga nisbatan 30 % gacha qimmat bo‘lishi me’yoriy hisoblanadi. Urug‘larning tovarlik sifati 90 % dan past bo‘lmasligi, virus va kasalliklarga chidamli bo‘lishi zarur. Mavjud navlarga nisbatan 25 % gacha hosildorlik talabi qo‘yilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda kartoshkaning ertaki hamda o‘rtapishar navlari nisbatan yuqori

[17] https://aniq.uz/uz/yangiliklar/kartoshkachilikni-rivojlantirish-choralari-belgilandi?utm.
[18] https://siat.stat.uz/reports-filed/323/table-data.

hosildorlikni (20-30 tonna/ga) ta’minlaydi. Shuning uchun an’anaviy va biotexnologik usullar o‘rtasida farqlar mavjud (3-jadval).

3-jadval

Kartoshka urug‘chiligida an’anaviy va biotexnologik usullarning solishtirma tahlillari[19]

An’anaviy usul	Biotexnologik usul
Tabiiy usulda yetishtirish, virus xavfi yuqori	Virussiz toza urug‘lik, sifat va barqarorlik
O‘rtacha, 20-30 tonna/ga	O‘rtacha, 40-50 tonna/ga
Mavsumdan mavsumga o‘zgaruvchan	Barqaror va yuqori samarali
Yetishtirish va saqlashda xarajatlar kam, yo‘qotishlar ko‘p	Laboratoriya va texnik jihozlar uchun sarf ko‘p, sifati va miqdori yuqori
Texnologiya oddiy va eskirgan	Ilmiy kadrlar va laboratoriya zarur
Hosil o‘rtacha, xarajatlar kam	Hosildorlik yuqori, xarajat ko‘proq
Viruslar, zararlanish, kam hosil	Laboratoriya, mablag‘ risklari
Urug‘ yetarli emas, importga bog‘liqlik	Urug‘ ko‘payadi, importga cheklanadi
An’anaviy usul qo‘llab-quvvatlanadi	Ilg‘or texnologiyalar va yuqori sifat

In vitro ko‘paytirishda bir dona sog‘lom kartoshkadan 20-50 ta mini tuganak olinadi, bu an’anaviy usul (8-10 ta)dan ancha ko‘p demakdir. Gektaridan 40-50 tonnagacha hosil olish mumkin, bunda hosildorlik 30 %ga oshadi (an’anaviyda gektaridan 18-25 tonna).

Tannarx: $T=X+M+E+Q$ (5).	**Foyda:** $F = \text{daromad} - \text{tannarx}$ (6). **Rentabellik:** $P = \frac{\text{Daromad}}{\text{Tannarx}} * 100\%$ (10).
Shudgorlash, kultivatsiya hamda ekish xarajatlari, urug‘ narxi, o‘g‘it, suv va mehnat sarfi, yoqilg‘i va ish haqi.	Agar rentabellik 25-40% atrofida bo‘lsa, urug‘chilik xo‘jaligi samarali hisoblanadi.
Ishlab chiqarish qiymati (daromad): $D = \text{hajm}\left(\frac{ga}{tn}\right) \text{ sotish narxi}\left(\frac{so'm}{tn}\right)$ (7).	**Ishlab chiqarish samaradorligi:** $IS = \frac{\text{daromad}}{\text{xarajat}}$ (8).
Urug‘ini sotishdan kelib tushadigan tushum.	1 gektardan sof foyda (so‘m/ga), 1 kg urug‘ yetishtirish xarajati (so‘m/kg) va qaytarish koef. (IS>1) bo‘lsa samaralidir.

7-rasm. Kartoshka urug‘chilik tizimining iqtisodiy ko‘rsatkichlari[20]

400 ming dona in vitro o‘simlik yetishtirishda xarajatlarga ko‘ra tannarxlar shakllanishi integral nisbatda ifodalangan (8- va 9-rasmlar):

$$\mathbf{T=(MT+EI+MR)\ LK\ (1+KX)} \quad (9).$$

[19] Tadqiqotga asoslangan muallif ishlanmasi.
[20] Tadqiqotga asoslangan muallif ishlanmasi.

Bu yerda: MT-materiallar qiymati, EI-energiya iste'moli, MR-mehnat resurslari xarajatlari, LK-laboratoriya quvvatining tannarxga ta'sir koeffitsiyenti (1 ga teng), KX-ko'zda tutilmagan xarajatlar koeffitsiyenti (0,15).

T=(791500000+75600000+252000000)×1×1,15=1286965000 so'm, 1 dona in vitro o'simlik (1286965000:4000=3217,4) 3217,4 so'm.



8-rasm. 400 ming dona in vitro o'simlik yetishtirish xarajatlari[21]

Tahlillarga ko'ra, oziqlantiruvchi muhitga oid sarflar va energiya iste'moli eng yuqori ulushga ega, bu jarayonlarning texnologik talablari bilan bevosita bog'liq. In vitro ko'paytirishda ish haqi, sterilizatsiya vositalari va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari barqarorlashadi. Amortizatsiya sarflari uskunalarning xizmat muddati bo'yicha taqsimlagan holda jarayonni real iqtisodiy yuklamasini aks ettiradi.



9-rasm. 1 dona mini tuganak yetishtirish xarajatlarining o'sishi[22]

[21] Tadqiqotga asoslangan muallif ishlanmasi.
[22] Tadqiqotga asoslangan muallif ishlanmasi.

Shuningdek, mini tuganaklar tannarxini aniqlash uchun analiz va regressiya tenglamalaridan foydalanildi. Bunga ko‘ra: $\mathbf{Y=\beta_0+\beta_1X_1+.....+\beta_{14}X_{14}+\epsilon}$ (10).

Bu yerda: Y-tannarx (1 dona). X_1-energiya xarajat (2,6 so‘m), X_2-energiya xarajat (1,2 so‘m), X_3-go‘ng xarajat (96 so‘m), X_4-o‘g‘it xarajat (120 so‘m), X_5-mosket setka xarajat (330 so‘m), X_6-sholi qipig‘i xarajat (34,6 so‘m), X_7-yoqilg‘i moylash xarajat (3,5 so‘m), X_8-kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash xarajat (21,6 so‘m), X_9-ish haqi (360 so‘m), X_{10}-yashik xarajat (30 so‘m), X_{11}-sug‘orish xarajat (60 so‘m), X_{12}-texnika xarajat (3,6 so‘m), X_{13}-boshqa xarajat (159,5 so‘m), X_{14}-QQS (146,7 so‘m), β_0=0 (energiya, suv, ozuqa va boshqa xarajatlar, hosil va tannarxni ko‘rsatadi), β_1=(energiya xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_2=(suv xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_3=(go‘ng xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_4=(o‘g‘it xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_5=(mosket setka xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_6=(sholi qipig‘i xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_7=(yoqilg‘i moylash xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_8=(kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_9=(ish haqi xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_{10}=(yashik xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_{11}=(tomchilatib sug‘orish xarajat 1:1 ta’sir koef.), β_{12}=(texnika xarajat 1:1 ta’sir koef.) β_{13}=(ko‘zda tutilmagan xarajat 1:1 ta’sir koef.) β_{14}=(QQS 1:1 ta’sir koef.), ε=xatolik ($\varepsilon=Y_{haqiqiy}-Y_{taxmin}$=1369,3-1507,5) 0,1 teng.

Ko‘rsatkichlar: X_1=2,6; X_2=1,2; X_3=96; X_4=120; X_5=330; X_6=34,6; X_7=3.5; X_8=21,6; X_9=360; X_{10}=30; X_{11}=60; X_{12}=3,6; X_{13}=159.5; X_{14}=146,7; ε=0,1.

Natijada: Y=1369.3 so‘m.

$Y_{og‘irlik}$=N×0,06=10 000 (1 dona massasi ~ 60 g) 0,06= 600 kg / 0,6 t.

Hisob-kitobning ishonchliligi. $\mathbf{F-stat\equiv\frac{R^2/k}{(1-R^2)/(n-k-1)}}$ (11).

Bu yerda:

R^2-regressiya modeli koeffitsiyenti;

model o‘zgaruvchanlik ($0\le R^2\le 1$)=0,9;

k-mustaqil o‘zgaruvchilar soni k=$X_1\ldots X_{14}$)=14;

n-kuzatuvlar soni (ma’lumotlar punktlari soni, gektar)=29;

(n-k-1)-modelning erkinlik darajalari=14.

F-statistika butun mexanizmning ishonchliligini baholaydi (F>0).

$$\mathbf{F-stat\equiv\frac{R2/k=0.9/14=0.06429}{(1-R2)/(n-k-1)=0.1/14=0,00714};F-stat\approx 9,0}$$

An’anaviy usulda o‘rtacha hisobda 1 gektarda kartoshka yetishtirish uchun 3 tonna urug‘lik (45-50 mln so‘m), sof holda 500 kg mineral o‘g‘it (6,4 mln so‘m), 230 kg yoqilg‘i mahsulotlari (3 mln so‘m), mexanizatsiya xizmati (2 mln so‘m), soliqlar (2 mln so‘m), ish haqi (10-12 mln so‘m) va 1,5 mln so‘m boshqa xarajatlar sarflanadi. O‘rtacha 20-25 nafar ishchiga kunlik 200-400 ming so‘mgacha to‘lanadi.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda zamonaviy biotexnologiyalarga asoslangan kartoshka urug‘chiligi tizimini qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari”** deb nomlangan III bobida kartoshka urug‘chiligida an’anaviy usullardan farqli ravishda in vitro

ko‘paytirish usulini qo‘llash orqali mahsulot hajmining bosqichma-bosqich multiplikativ o‘sishi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlash (4-jadval), kartoshka urug‘chiligining iqtisodiy samaradorligini baholashda “Samaradorlik indeksi”ni takomillashtirish, samaradorlik darajalarini mezonlar orqali baholash (5-jadval), Samarqand viloyati misolida DXSh negizida urug‘lik kartoshka hajmini oshirish hamda yetishtirish jarayonlarini tizimli yondashuv asosida optimallashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (12-rasm), O‘zbekistonda zamonaviy biotexnologiyalarga asoslangan hamda iqtisodiy parametrlarga mos urug‘lik kartoshka yetishtirish hajmining 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan (5-jadval).

4-jadval

In vitro ko‘paytirish texnologiyasi asosida kartoshka urug‘chiligida mahsulot hajmining bosqichma-bosqich multiplikativ o‘sishi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlash mexanizmi[23]

1-bosqich (laboratoriya-issiqxona amaliyoti)		
1 yil. Ilmiy muassasalarga tanlov asosida 1,5 mln doll byudjet (transfer) mablag‘i ajratiladi; - Respublika komissiyasi tuziladi.	5 ta laboratoriyada 3 oyda 400 ming dona o‘simlik, 5 oyda 2 mln dona mikro tuganak yetishtiriladi.	24 gektar issiqxonalarda 10 mln dona mini tuganak yetishtirish mumkin.
2-bosqich (dala amaliyoti)		
2 yil. Qo‘rg‘ontepa, Baxmal, Zomin, Kitob, Shahrisabz, Yangiqo‘rg‘on, Bulung‘ur va So‘x tumanlariga (120 ga) mini tuganak tarqatiladi.	Min 2,5 ming tonna super-super elita urug‘lik yetishtirilib, o‘sha tuman fermer xo‘jaliklarga sotiladi.	Komissiya nazorat tadbirlarni tizimli o‘tkazadi, hokimliklar sotishda yordam beradi.
3-bosqich (dala amaliyoti)		
3 yil. 23 ta tuman, 1 ming gektar fermer xo‘jaliklari yerlarida min 25 ming tonna super elita urug‘lik yetishtiriladi.	**4 yil**. 25 ming tonna urug‘lik 10 ming gektar ekilib, min 250 ming tonna hosil olinadi. 100 ming tonna iste’mol va 150 ming tonna (60 %) elita urug‘likka olinadi.	**5 yil**. 150 ming tonna elita urug‘ 50 ming gektarga ekilib, o‘rtacha 1 mln 250 ming tonna hosil olinadi. 750 ming tonna R1 urug‘lik va 500 ming tonna iste’molga ajratiladi.

